

16-sonli Pudrat shartnomasi
Lot № 22110012129528 08 avgust 2022 yil

Samarqand shaxar

«12» avgust 2022 y.

Obodonlashtirish boshqarmasi keyingi o'rinlarda "Buyurtmachi" deb yuritiladi. O'zining Nizomi asosida ish yurituvchi Yu.Yu.Bobonazarov nomidan, bir tomondan va BABOBKOV JAVOHIR MCHJ keyingi o'rinlarda "Bajaruvchi" deb yuritiladi, o'zining Nizomi asosida ish yurituvchi raxbar U.Toshbekov nomidan, ikkinchi tomondan mazkur shartnomani quyidagilar haqida tuzdilar.

1. KONTRAKT PREDMETI:

1.1. Mazkur kontrakt bo'yicha "Buyurtmachi" pudrat ishlarni qabul qilish va to'lash, "Pudratchi" esa buyurtmachining buyurtmasi bo'yicha quyidagi pudrat ishlarini bajarish majburiyatini oladi:

№	Ishning nomi	E'lon bo'yicha	Shartnoma summasi
	Samarqand shahar Xazora mahallasi Spitamenshox ko'chasini ta'mirlash ishlari	619749473	589249626
	Jami		589249626

1.2. Kontraktning umumiy summasi QQS bilan 589249626 (Besh yuz sakson to'qqiz million ikki yuz qirg to'qqiz ming olti yuz yigirma olti) so'mni tashkil qiladi.

1.3. Ishni boshlash va topshirish muddati: Boshlanishi: "12" avgust 2022 y. Tugashi: "28" avgust 2022 y.

2. HISOB-KITOBLAR TARTIBI

2.1. "Buyurtmachi" mazkur kontraktni g'aznachilikda ro'yxatga olingan kundan boshlab 10 bank ish kuni ichida qonunchilikka muvofiq kontrakt umumiy summasidan 30 % miqdorida (shartnoma summasining 30% miqdorida) oldindan to'lash majburiyatini oladi, qolgan 70 % ni bajarilgan ishlar to'g'risidagi dalolatnoma imzolanganidan so'ng 10 bank ish kuni ichida qabul qilish dalolatnomasi, hisob-faktura v.b. asosida to'laydi.

2.2. Kontrakt narxi elektron savdo natijasi bo'yicha belgilanadi va o'zgartirilmaydi, kontraktga qo'shimcha kelishuv tuziladigan hollar bundan mustasno.

2.3. Ishlar yakunlangandan keyin "Pudratchi", "Buyurtmachiga" bajarilgan ishlar to'g'risidagi dalolatnomani taqdim etadi.

2.4. "Buyurtmachi" dalolatnoma va unga ilova qilingan boshqa hujjatlarni olgandan keyin 10 bank ish kuni ichida imzolangan dalolatnomani yoki ishlarni qabul qilishni asosli ravishda rad qilish xatini "Pudratchi"ga yuborish majburiyatini oladi.

2.5. Rad qilingan holatda, qabul qilishni asosli ravishda rad qilinishi yuzasidan kamchilikliklarni bartaraf etish ro'yxati va muddati bo'yicha tomonlar o'rtasida dalolatnoma tuziladi.

3. KONTRAKTNING BAJARILISHI

3.1. Mazkur kontrakt belgilangan tartibda kontrakt talablari va shartlariga va O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi muvofiq ijro etilishi shart.

3.2. Kontrakt shartlarini bajarishni bir tomonlama rad qilish yoki kontrakt shartlarini bir tomonlama o'zgartirishga yo'l qo'yilmaydi, O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligida belgilangan hollar bundan mustasno.

3.3. Tomonlar o'z zimmalariga olgan barcha majburiyatlarning ijrosini ta'minlagan taqdirda kontrakt bajarilgan hisoblanadi.

3.4. Buyurtmachining roziligi bilan pudrat ishlari muddatidan oldin bajarilishi mumkin.

3.5. Pudrat ishlari bevosita Buyurtmachining mas'ul xodimlari tomonidan ishlar hajmi va ularning sifati ko'rsatiladigan dalolatnoma bo'yicha qabul qilinadi.

4. TOMONLARNING JAVOBGARLIKLARI

4.1. Buyurtmachi:

- savdolarni o'tkazish uchun taqdim etilgan hujjatlarning ishonchliligi va O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlariga muvofiqligi;

- savdolar g'olibi bo'lgan pudratchi bilan kontrakt tuzish yoki savdolar g'olibi bo'lgan yetkazib beruvchi bilan kontrakt tuzishni rad etish muddatiga rioya etilishi (ajratilgan byudjet mablag'lari kamayishi holatlari bundan mustasno);

- tomonlar o'rtasidagi kontrakt majburiyatlarini bajarish tugallangandan keyin besh yil mobaynida savdolar predmeti bo'yicha e'lonlar va texnik hujjatlarning asl nusxalari saqlanishi uchun javob beradi.

4.2. Bajarilgan ishlarni tanlab olmaslik, shuningdek bajaruvchi shartnomada belgilangan muddatda (davrda) ularni ishlarni bajarganda, ishlarni qabul qilib olishni asossiz ravishda rad etganlik uchun buyurtmachi pudratchiga qabul qilib olinmagan (o'z muddatida qabul qilib olinmagan) ishlar qiymatining 5 foizi miqdorida jarima to'laydi.

Qabul qilib olinmagan (olish asossiz rad etilgan) hollarda, pudratchi jarima undirishdan tashqari, ushbu ishlar bajarilganligining kafolatlarini taqdim etgan holda, qabul qilib olinmagan (o'z muddatida qabul qilib olinmagan) ishlar qiymati to'lanishini talab qilishga haqlidir.

4.3. To'lov talabnomasi aktseptini asossiz ravishda butunlay yoki qisman rad etganlik, shuningdek hisob-kitobning boshqa shakllarida ishlar haqini to'lashdan bosh tortganlik (bank muassasasiga to'lov topshiriqnomasini taqdim etmaganlik, chek bermaganlik, akkreditivni taqdim etmaganlik va hokazo) uchun buyurtmachi pudratchiga o'zi to'lashni rad etgan yoki bosh tortgan summaning 15 foizi miqdorida jarima to'laydi.

Bajarilgan ishlar haqini o'z vaqtida to'lamaganlik uchun buyurtmachi pudratchiga o'tkazib yuborilgan har bir kun uchun kechiktirilgan to'lov summasining 0,4 foizi miqdorida, ammo kechiktirilgan to'lov summasining 50 foizidan ortiq bo'lmagan miqdorida penya to'laydi.

4.4. Pudratchi:

- savdolar qatnashish uchun taqdim etilgan hujjatlarning ishonchliligi;

- sifat, texnik parametrlar va taklif etilayotgan ishlarni bajarish muddatlari pudratchi buyurtmanomalari shartlarining buyurtmachi buyurtmanomalarida nazarda tutilgan shartlarga muvofiqligi;

- savdolar shartlarining boshqa buzilishlari;

- tuzilgan kontrakt shartlarining bajarilmaganligi uchun javob beradi

4.5. Agar bajarilgan ishlar sifati standartlar, texnik shartlar, qonun hujjatlarida yoki xo'jalik shartnomasida belgilangan boshqa majburiy shartlarga mos kelmasa, buyurtmachi ishlarni qabul qilish hamda ularning haqini to'lashni rad etib, pudratchidan sifati lozim darajada bo'lmagan ishlar qiymatining 20 foizi miqdorida jarima undirib olishga, agar ishlar haqi to'lab qo'yilgan bo'lsa, to'langan summani belgilangan tartibda qaytarishni talab qilishga haqlidir. Sifati lozim darajada bo'lmagan ishlar bajarilganlik uchun jarima yetkazib pudratchidan aktseptsiz tartibda undirib olinadi.

4.6. Pudrat ishlari bajarish muddati o'tkazib yuborilgan yoki bajarilmagan hollarda Pudratchi Buyurtmachiga har bir o'tkazib yuborilgan kun uchun majburiyatning bajarilmagan qismining 0,5 foizi miqdorida penya to'laydi, biroq penyalarning umumiy summasi bajarilmagan pudrat ishlari qiymatining 50 foizidan oshishiga yo'l qo'yilmaydi. Penyani to'lash shartnoma majburiyatlarini buzgan tomonni kontraktni

tegishli tarzda bajarish va pudrat ishlarini bajarish muddatini o'tkazib yuborilishi yoki bajarilmasligi natijasida yetkazilgan zararlarni qoplab berish majburiyatidan ozod qilmaydi.

5. NIZOLARNI HAL ETISH TARTIBI

5.1. Kelishmovchiliklar va bahslar kelib chiqqan taqdirda, tomonlar, qoidaga ko'ra, mustaqil ravishda ularni sudgacha hal etish choralari ko'radilar.

5.2. Tomonlar kelishmovchilik va bahslarni hal etish uchun bevosita iqtisodiy sudiga murojaat qilishga haqlidir.

5.3. Tomonlar xo'jalik sudiga murojaat qilgan taqdirda, sud ishi da'vogar joylashgan manzildagi iqtisodiy sudida ko'rib chiqiladi.

6. FORS-MAJOR

6.1. Fors-major natijasida majburiyatlarni bajarilmasligi holatlari kelib chiqsa va bu holatlar mazkur shartnomaning bajarilishiga bevosita ta'sir etsa, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2005 yil 15 fevralidagi 63-sonli "Engib bo'lmas kuch (fors-major) holatlarining mavjudligini tasdiqlash mexanizmini kiritish to'g'risida"gi qarorida ko'zda tutilgan shartlarda tomonlar ushbu kontrakt bo'yicha majburiyatlarni qisman yoki to'liq bajarilishidan ozod etiladi.

7. BOSHAQA SHARTLAR

7.1. Ushbu shartnomada tomonlarning ko'zda tutilmagan o'zaro munosabatlari O'zbekiston Respublikasi qonunlari bilan tartibga solinadi.

8. KONTRAKTNING AMAL QILISH MUDDATI

8.1. Mazkur kontrakt g'aznachilikda majburiy ro'yxatga olingan kundan boshlab kuchga kiradi va 2022 y. "31" dekabrgacha amal qiladi.

8.2. Kontraktning amal qilishi bir tomonning tashabbusiga ko'ra oy (bir) davomida boshqa tomonga yozma ariza topshirgan kundan boshlab, barcha o'zaro hisob-kitoblar tugaganligi muddatidan avval to'xtatilishi mumkin. Tomonlar o'z zimmlariga olgan barcha majburiyatlarning bajarilishini ta'minlagan hollarda kontrakt bajarilgan hisoblanadi.

8.3. Kontraktning amal qilish muddatini tugashi tomonlarni javobgarlikdan ozod qilmaydi.

9. KORRUPTSIYAGA QARSHI TALABLAR.

9.1. Shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarishda Tomonlar korruptsiyaga qarshi kurashish bo'yicha qoidalarga, shu jumladan amaldagi amaldagi qonunlarga rioya etilishini ta'minlaydi, yani ular, ularning xodimlari, kafillangan shaxslar, benifitsiyalari va shartnomani amalga oshirishdagi xamkorlari, pudratchilari tomonidan bir-biriga yoki davlat ishtirokidagi tashkilot xodimiga pora berish yoki pora berishda vositachilik qilish moddiy yoki nomoddiy naf olishdan tiyilishi lozim. Tomonlar ushbu harakatlarning oldini olish bo'yicha chora-tadbirlar qabul qilinishini kafolatlaydi.

9.2. Tomonlar korruptsiyaga qarshi qoidalar buzulganda yoki asosli gumonlar yuzaga kelganida darhol yozma ravishda (elektron pochta orqali) yoki ishonch telefoni orqali bir-birini xabardor qilish majburiyatini oladi. Bunda tomonlar yuzaga kelgan xolatga oydinlik kiritish maqsadida yozma izox talab qilish xuquqiga ega va murojaatini olgan tomon 10 (o'n) ish kuni mobaynida tushintirish berishi yoki o'z fikrini bildirishi mumkin.

9.3. Mazkur bobning talablari bajarilmaganda, shu jumladan belgilangan muddatda korrupsion xavfxatar barataraf etilmasa, tomonlar amalga oshirgan choralar korrupsion holatni pasayishiga olib kelmasa, boshqa tomon shartnomani bekor qilish xuquqiga ega yoki uning ijrosini to'xtatib qo'yishi mumkin.

9.4. Ushbu bobda ko'rsatilgan asoslar bo'yicha shartnomani bir tomonlama bekor qilish talab qilgan tomonga yetkazilgan zararlarni qoplash qonunchilikda ko'rsatilgan tartibda amalga oshiriladi, ushbu bobning majburiyatlari- ni buzgan tomon esa shartnomaning bir tomonlama bekor qilinishi oqibatida ko'rilgan zararlar qoplashni talab qilishiga xaqli emas.

10. YURIDIK MANZILLARI VA REKVIZITLARI

Bajaruvchi
Tashkilot nomi BABOBEKOV JAVOHIR MCHJ
Manzil: Samarqand Payariq tuman xosa mfy Telefon:
STIR kodi: 303743354 OKED: 42110
X/R 20208000100577793001
Bank nomi: AIFB Ipoteka bank Samarqand filiali MFO: 00014
Raxbar: U. Foshbekov

Buyurtmachi
Obodonlashtirish boshqarmasi Manzil: Chuqur yo'l ko'chasi 21 uy
Tel./faks: 8 (366) _____ sh/h : 401422860184017065100110001
Markaziy bank Toshkent shaxar bosh boshqarmasi
STIR 204858743 OKONX _____
Samarkand shaxar G'aznachilik bulinmasi G'azna h/v 23402000300100001010 Bankning nomi XKKM Markaziy bank MFO 00014 g'aznachilik bulinmasi STIRi 201122919
Rahbar Yu.Bobonazarov (lavozim) (F.I.Sh)

“ТАСДИҚЛАЙМАН”
“Ободонлаштириш бошқармаси
булим бошлиги, комиссия раиси



Т.Чутбаев

Самарканд шаҳар ҳокимлиги Ободонлаштириш бошқармаси биносида
"Самарканд шаҳар Хазора маҳалласи Спитаменшоҳ кучасини таъмирлаш"
ишлари буйича ташкилотлар ўртасида танлов ўтказиш бўйича комиссия
йиғилиши

БАЁНИ

Самарканд шаҳри

«10» август 2022 й.

Раислик қилувчи

Т.Чутбаев

Иштирок этган комиссия аъзолари:

Ж.Саидов

Комиссия аъзоси, бош муҳандис в.в.б

Б.Пардаев

Комиссия аъзоси, техник назоратчи

М.Мусинов

Комиссия аъзоси, булим бошлиги

Ш.Соҳибназаров

Комиссия аъзоси, муҳандис

Т.Эгамуратов

Котиб, бош ҳисобчи

КУН ТАРТИБИ:

Самарканд шаҳар ҳокимлиги Ободонлаштириш бошқармаси биносида
"Самарканд шаҳар Хазора маҳалласи Спитаменшоҳ кучасини таъмирлаш"
ишлари.

(Ж.Бабаев, Ш.Соҳибназаров, Ж.Камбаров, Т.Эгамуратов)

Бошқарма томонидан 2022 йил 29 июлда Ўзбекистон Республикаси Товар ва хом-ашё биржасининг электрон порталига "Самарканд шаҳар Хазора маҳалласи Спитаменшоҳ кучасини таъмирлаш" ишлари буйича № 129528-лот рақами билан эълон жойлаштирилди. Мазкур лот бўйича 2022 йил 08 августдаги энг яхши таклифларни танлаш савдосини ўтказиш бўйича давлат харидлари комиссиясининг электрон портали орқали шаклланган Самарканд шаҳар ҳокимлиги Ободонлаштириш бошқармаси биносида бошқарма томонидан "Самарканд шаҳар Хазора маҳалласи Спитаменшоҳ кучасини таъмирлаш" ишлари буйича баённомасига асосан эълон якунига кўра Комиссия аъзолари томонидан ВАВОВЕКОВ ЈАВОНИР МСНЈ корхонаси ғолиб деб топилганлигини инобатга олиб:

ҚАРОР ҚИЛИНДИ:

1. Ўзбекистон Республикасида 2021 йил 22 апрелдаги “Давлат харидлари тўғрисида”ги 684-сонли Қонуннинг 62-моддаси 3-бандига асосан комиссия баённомаси давлат харидлари электрон тизимига муҳокама қилиш учун икки иш кунига жойлаштирилди. Икки иш куни давомида давлат харидлари электрон тизимига жойлаштирилган баённома бўйича ҳеч қандай эътирозлар ёки қўшимча таклифлар келиб тушмаганлиги маълумот учун қабул қилинсин.

2. Бошқарма бош бухгалтери Т.Эгамуратовга:

Юқоридагилардан келиб чиқиб ҳамда комиссия аъзоларининг 2022 йил 18 июндаги электрон баённомасига асосан ҳолиб ВАВОВЕКОВ ЈАВОНИР МСНЈ корхонаси билан қонунчиликда ўрнатилган тартибда шартнома тузилсин.

3. Бошқарма техник назоратчиси Б.Пардаев Самарканд шаҳар ҳокимлиги Ободонлаштириш бошқармаси "Самарканд шаҳар Хазора маҳалласи Спитаменшоҳ кучасини таъмирлаш" ишларининг сифат даражаси назорат қилинсин.

Комиссия аъзолари

Комиссия аъзоси, бош муҳандис в.в.б




Ж.Саидов

Комиссия аъзоси, бўлим бошлиғи



М.Мушинов

Комиссия аъзоси, техник назоратчи



Б.Пардаев

Комиссия аъзоси, муҳандис



Ш.Соҳибназаров

Котиб, бош ҳисобчи



Т.Эгамуратов



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI ADLIYA VAZIRLIGI

SAMARQAND VILOYAT ADLIYA BOSHQARMASI

SAMARQAND SHAHAR ADLIYA BO'LIMI

YURIDIK XIZMAT KO'RSATISH MARKAZI

140100, Samarqand shahar, Amir Temur ko'chasi, 152-uy.
tel: (99855) 701 50 05

YURIDIK AHAMIYATGA EGA HUJJATLARNING QONUN HUJJATLARIGA MUVOFIQLIGI TO'G'RSIDA HUQUQIY XULOSA

Obodonlashtirish boshqarmasi keyingi o'rinlarda "Buyurtmachi" deb yuritiladi. O'zining Nizomi asosida ish yurituvchi Yu.Yu.Bobonazarov nomidan, bir tomondan va BABOBEKOV JAVOHIR MCHJ keyingi o'rinlarda "Bajaruvchi" deb yuritiladi, o'zining Nizomi asosida ish yurituvchi raxbar U. Toshbekov nomidan, ikkinchi tomondan birgalikda tomonlar deb ataladi, Pudrat shartnomani tuzish to'g'risida.

Samarqand shahar Obodonlashtirish boshqarmasi keyingi o'rinlarda "Buyurtmachi" deb yuritiladi, O'zining Nizomi asosida ish yurituvchi Yu.Yu. Bobonazarov hamda BABOBEKOV JAVOHIR MCHJ keyingi o'rinlarda "Bajaruvchi" deb yuritiladi, o'zining Nizomi asosida ish yurituvchi raxbar U. Toshbekov bilan 12.08.2022-yilda tuzilgan № 16-sonli pudrat shartnoma.

Kontraktning umumiy summasi QQS bilan 589 249 626 (Besh yuz sakson to'qqiz million ikki yuz qirq to'qqiz ming olti yuz yigirma olti) so'mni tashkil qiladi.

Shartnoma O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi va "Xo'jalik yurituvchi subyektlarning shartnomaviy-huquqiy bazasi" to'g'risidagi qonuni hamda "Davlat xaridlari to'g'risida" gi qonun talablariga muvofiq tayyorlangan.

Samarqand shahar Obodonlashtirish boshqarmasi tomonidan 11.08.2022-yil tizimga kiritilgan.

Loyiha amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq ishlab chiqilgan va uni qabul qilish maqsadga muvofiq.

**Samarqand shahar
Yuridik xizmat ko'rsatish
Markazi Bosh yuriskonsulti**



2022-yil 12-avgust
U.Xudayqulov



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI SAMARQAND VILOYATI PAYARIQ TUMANI
HOKIMLIGI HUZURIDAGI TADBIRKORLIK SUB'EKTLARIGA DAVLAT
XIZMATLARI KO'RSATISH «YAGONA DARCHA» MARKAZI
Yuridik shaxsni davlat ro'yxatidan o'tkazish to'g'risida

GUVOHNOMA

Reestrdaagi tartib raqami № **21**

2016 yil 21 yanvar

Mazkur guvohnoma yuridik shaxs

"BABOBEKOV JAVOHIR"

mas'uliyati cheklangan jamiyati ga berilgan.

(o'zbek tilidagi to'liq nomi)

Tashkiliy-huquqiy shakli	THSh 152
Mulkchilik shakli	MSh 142
Pochta manzili	MHOBT 1718224445
Yuridik shaxs kodi	KTUT 259 841 73
Tarmoq kodi	XXTUT 61110
Soliq to'lovchining identifikatsiya raqami	STIR 303 743 354

Qo'shimcha ma'lumotlar:



Markaz direktori

D.Suvanov

